



*hokimligi  
mактабгача ва мактаб та'лими  
бoshqarmasi*

*mактабгача ва  
мактаб та'лими bo'limi tasarrufidagi  
—umumiy o'rta ta'lim mакtabi  
tarix fani o'qituvchisi*

*ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun  
“TARIXSHUNOS” NOMLI*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot**

<b>Nº</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug‘ilgan sanasi</b>	<b>Sinfি</b>	<b>Manzili (to‘liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona \_\_\_\_\_

“\_\_\_\_\_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

“\_\_\_\_\_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

To 'garak rahbari \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan “Tarixshunos” to‘garagining  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	XIX asrning oxirida Xitoy			
2.	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xindiston			
3.	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Eron			
4.	Shimoliy Afrika mamlakatlari			
5.	Aniq va tabiiy fanlar rivoji			
6.	1918 – 1939-Yillarda Xalqaro munosabatlar			
7.	1918 – 1939-Yillarda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallahuvi, ilm-fandagi yutuqlar			
8.	1918 – 1939-Yillarda Buyuk Britaniya			
9.	1918 – 1939-yillarda Fransiya			
10.	1918 – 1939-yillarda Amerika qo‘shma shtatlar			
11.	1918 – 1939-yillarda Germaniya			
12.	1918 – 1939-yillarda SSSR			
13.	1918 – 1939-Yillarda SSSR			
14.	1918 – 1939-yillarda Italiya va Ispaniya			
15.	1918 – 1939-Yillarda lotin Amerikasi mamlakatlari			
16.	1918 – 1939-Yillarda Yaponiya			
17.	1918 – 1939-Yillarda Xitoy va Hindiston			
18.	1918 – 1939-Yillarda Turkiya va Eron			
19.	1918 – 1939-Yillarda Afrika mamlakatlari			
20.	Ikkinci jahon urushi va uning yakunlari			
21.	Ikkinci jahon urushi va uning yakunlari			
22.	Ikkinci jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar «Sovuq urush» ning boshlanishi			
23.	1946 – 1991-Yillarda Amerika qo‘shma shtatlari			
24.	1946 – 1991-Yillarda Sovet ittifoqi			
25.	1946 – 1991-yillarda Sovet ittifoqi			
26.	1946 – 1991-Yillarda buyuk Britaniyava Fransiya			
27.	1946 – 1991-Yillarda Germaniya va Italiya			
28.	1946 – 1991-Yillarda Yaponiya va Osiyorning yangi industrial mamlakatlari			
29.	1946 – 1991-Yillarda Xitoy xalq respublikasi			
30.	1946 – 1991-Yillarda Hindiston va Pokiston			
31.	1946 – 1991-Yillarda Turkiya, Eron va Afg'oniston			
32.	1946 – 1991-Yillarda lotin Amerikasi			
33.	1946 – 1991-yillarda Afrika mamlakatlari			
34.	XX Asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi			

Sana: “ ” 20 -yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_  
Mavzu: XIX asrning oxirida Xitoy

## II. Mashg‘ulot maqsadi:

- a) Ta`limiy maqsad: Mavzu xaqida bilimlarga ega bo‘lish
- b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg‘ularni shakillantirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakillantirish

## III.Mashg‘ulot usuli: Yangi tushuncha berish.


### VI.Mashg‘ulot jixozi: Mashg‘ulotlik , bukletlar, xarita, tarqatma material

#### V.Mashg‘ulotning borishi:

- a) Davomadni aniqlash.
- b) Dunyo yangiliklarini so‘rash
- c) O‘tilgan mavzuni mustaxkamlash.

#### VI. Yangi mavzu bayoni:

Xitoyning yarim mustamlakaga aylanishi. XIX asr oxirida Xitoy qoloq, yarim feodal davlat edi. Yerning asosiy qismi zamindor boylar qo‘lida edi. Ko‘pchilik dexqonlar zamindorlardan yerni ijaraga olar, ijara xaqini pul bilan yoki xosil xisobidan to‘lar edilar. Yeri bor dexqonlar juda kam edi.



Dexqonlar shaxarga ish qidirib kelardilar. Lekin xar doim xam ish topilmas edi. Chunki, Xitoyda sanoat juda sekin taraqqiy etayotgan edi.

XIX asrning so‘nggi choragidan boshlab mamlakatda kapitalistik munosabatlar xam rivojiana boshladи. Dastlabki temiryo‘llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi. Yirik shaxarlar barpo etildi. Ishchilar soni ko‘paydi. Sanoat vujudga kelishi bilan milliy burjuaziya xam shakllana boshladи. Biroq, milliy burjuaziyaning ko‘pchiligi kompradorlardan iborat edi. Ular amalda chet el firmalarining agentlari edi. Ular chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xomashyo sotib olish xisobiga boyib borardilar.

Pulga muxtoj bo‘lgan Sin sulolasi chet el davlatlari bilan asoratli shartnomalar tuzar va milliy manfaatlarga xilof ravishda ularga yon berardi. 70-yillardayoq ajnabiylar Xitoyning 26 porti (bandargoxi)ga bemalol kirardilar va xo‘jayinlardek ish yuritardilar.

Temiryo‘llar qurilishi xorijliklar tasarrufida edi. Ko‘mir shaxtalari, konlarning katta qismi xam ularning ixtiyorida bo‘lib, Xitoy chet el davlatlarining xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Chet elliklar katta shaxarlarda xatto o‘z mavzelarini tashkil etib, Xitoy ma’murlarini mensimasdan mustaqil ish yuritdilar.

Xitoyning Yaponiya bilan 1894-1895-yillardagi urushda mag‘lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko‘proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo‘ldi. 1897-yilda Germaniya Szyaochjouvan ko‘rfazini bosib oldi va Shandun viloyatini o‘z ta’sir doirasiga kiritdi. Fransiya Suamchjuvan ko‘rfazini egalladi va Yunan viloyatida xukmronlik ta’sirini o‘tkaza boshladи. Rossiya Port-Arturi, Buyuk Britaniya Veyxay portini bosib oldi. Eng boy xudud - Yantszi daryosi xavzasи Buyuk Britaniyaning ta’sir doirasiga tushib qoldi. Futsziyan viloyatida yapon bosqinchilar xukmron bo‘lib oldilar. Xitoydagi xar qanday qurilish yoki o‘zgarishlar bosqinchilar tomonidan nazorat qilinardi. Shunday qilib, Xitoy yarim mustamlakaga aylandi.

Sanoat taraqqiyoti va chet el xukmronligi. XIX asrning oxirida Xitoyda ilk sanoat korxonalari paydo bo‘la boshladи. 1881-yilda Shimoliy Xitoyda binnchi temiryo‘l ishga tushirildi. 1897-yilda bu yerda 600 ga yaqin chet el firmalari mavjud edi. Lekin sanoat korxonalarining o‘sishi va ko‘payishi sust bordi.

Yevropaning savdodagi xissasi 1890-yilda 40 mln iyenga teng bo‘ldi. Import eksportdan ancha ko‘p edi. Xitoy bilan Buyuk Britaniya o‘rtasida 1876-yili tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Buyuk Britaniyaga Xitoyning 10 dan ortiq portiga erkin kirish, qator viloyatlarda imtiyozli savdo qilish xuquqini berdi.

1880-yillarda Fransiyaning Vietnamni bosib olishi tufayli Fransiya-Xitoy munosabatlari yomonlashdi. 1884-yili Xitoy Markaziy Vietnam ustidan rasmiy xukmronligidan voz kechdi va u yerda Fransiya protektoratini tan oldi. Xitoy xukumati Fransiya bilan shoshilinch bitim tuzdi va Fransiyaga qator masalalarda "yon berdi".

Yaponiya xam Xitoya nisbatan bosqinchilik rejalarini amalgalashga kirishdi. 1872-yili Ryukyu orolini, 1874-yili Tayvanni bosib olishga xarakat qildi. Tayvandagi urushda AQSh xarbiy kuchlari ishtirok etgani uchun bu orol amerikalik savdo-sanoatchilar uchun "ochiq" deb e'lon qilindi.

Ijtimoiy xarakat. Xitoy endigina sanoatlashuv yo'liga qadam qo'yganda xorijiy davlatlar tomonidan talon-taroj qilinishi xalq axvoliga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Xitoyni to'g'ri taraqqiyot yo'liga olib chiqish xaqida turli g'oyalalar shakllandi. Bu isloxo-chilik xarakati deb ataldi. Bu davr ijtimoiy xarakatida Sun Yat Senning o'rni aloxida axamiyatga ega bo'ldi. U Xitoyni inqilob yo'liga yetaklagan raxnamo edi. Sun Yat Senning "Xitoy uyg'onish jamiyati" nomli tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlash va Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish, uchun kurashdi.

Xitoyda bu davrdagi ijtimoiy xarakatda "Ixetuan" - "Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht" deb atalgan yashirin tashkilot xam katta rol o'ynadi. "Ixetuan"lar "Manjur sinlarini xaydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz" shiori ostida ish ko'rardilar.

1899-yili "ixetuan" xarakati qo'zg'olon tusini oldi. ixetuanlar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoya birlashtirish kabi talablarni qo'ydilar. Sin xukumati qo'zg'olondan cho'chib qoldi. Chunki Ixetuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyb yarmini qo'lida tutib turgan edilar. 1900-yili xukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi.

Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari Pekinga yurish boshladilar va bu yerda o'z xokimiyatini o'rnatdilar.

Xitoya qarshi interentsiya. Bu voqealari Pekinga chet elliklar interentsiyasi boshlanishiga baxona bo'ldi. Interventsiyada 8 davlat - Germaniya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Rossiya va Avstriya-Vengriya qatnashdi. Ularning xar biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlar edi.

1900-yil iyul oyida chet el interventlari yalpi xujumga o'tdilar. Avgust oyida Pekin egallandi. Xorijliklar shaxarni va imperator saroyini talon-taroj qildilar. 8 davlat Xitoyni asoratli shartnomani imzolashga majbur qildi. Shartnomada qo'zg'olonda qatnashgan mansabdar shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shuningdek, Pekin bilan dengiz soxili o'rtasidagi yo'llarni muxofaza qilish uchun ajnabiy davlatlarga Xitoyda o'z qo'shinlarini saqlashga ruxsat berildi, Bundan tashqari, Xitoy chet el interventlariga 33 mln dollar tovon to'lashga majbur etildi. Xitoya qurol-aslaxa kiritish taqiqlandi. Ajnabiyarning Xitoydagagi imtiyozlari ko'paydi. Natijada, Xitoy yanada ximoyasiz bo'lib qoldi.

Ayni paytda, Ixetuan qo'zg'oloni mustamlakachilarni extiyotkorlik bilan xarakat qilishga majbur etdi.

AQSh monopolistlari 90-yillarda Xitoya bostirib kirishni o'zlariga asosiy maqsad qilib oldilar.

1899-yil sentabrda AQSh davlat kotibi Xeyning "ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilindi va u "Xey" doktrinasi deb nom oldi.

O'zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoyda barcha raqiblarini yengishga umid bog'ladi.

**Interventsiya** (lotincha - aralashuv) - o'zga davlat xududini bosib olish, o'z xukmronligini o'rnatish maqsadida shu davlat ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashish.

**Komprador** (ispancha - xarid qiluvchi) - iqtisodiy qoloq va qaram davlatlar burjuaziyasining chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi qismi.

**Konvensiya** (lotincha - shartnoma) - ko'p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri.

## VII Mustahkamlash

### VIII. O'quvchilarni baholash:

**IX. Uyga vazifa:** Mavzuni o'qish.

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

### **Mavzu: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xindiston**

#### **II. Mashg‘ulot maqsadi:**

- a) Ta‘limiy maqsad: Mavzu xaqida bilimlarga ega bo‘lish
- b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg‘ularni shakillantirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakillantirish

#### **III.Mashg‘ulot usuli: Yangi tushuncha berish.**

#### **VI.Mashg‘ulot jixozi: Mashg‘ulotlik , bukletlar, xarita, tarqatma material**

#### **V.Mashg‘ulotning borishi:**

- a) Davomadni aniqlash.
- b) Dunyo yangiliklarini so‘rash
- c) O‘tilgan mavzuni mustaxkamlash.

#### **VI. Yangi mavzu bayoni:**

Mustamlakachilik. Xindiston bu davrda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. Metropoliya Xindistonne vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida boshqarar edi.

Ingliz mustamlakachiligi sharoitida Xindistonda sarmoyadorlikka asoslangan maxalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886-yilda to‘qimachilik sanoatida 95 ta fabrika bor edi. Konlar soni ko‘paydi. Temiryo‘l tarmoqlari 1900-yilda salkam 40.000 km ni tashkil qildi. Bu xomashyo tayyorlash va tashishda muxim axamiyatga ega bo‘ldi.

Buyuk Britaniya Xindistonda sanoatni o‘ziga qulay qilib joylashtirishga xarakat qildi. Asosiy sanoat korxonalari dengizbo‘yi port shaxarlari yaqinida edi. Bundan Xindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish maqsadi ko‘zlandi. 1873-yildan 1883-yilgacha Xindiston bilan Buyuk Britaniya savdosi 60 %ga o‘sdi. Xindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi.

Dexqonchilikda agrotexnika madaniyatni pastligicha qoldi. Mustamlakachilar tomonidan ochilgan



sug‘orish inshootlari bor-yo‘g‘i 20 % yerni sug‘orishga yetar edi. 60-70 % yer, xosilning katta qismini to‘lash sharti bilan dexqonlarga ijaraga berilardi. Qarz xisobiga ishlab berishga majbur bo‘lgan odamlar soni tobora ko‘payabordi.

Qishloq xo‘jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu soxaga ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular qul deb atalar edi.

Xindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo‘jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin, olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi. Qishloq xo‘jaligida monokultura vujudga keldi. Bengaliya - kanop, Assam - choy, Bombey va Markaziy Xindiston - paxta, Panjob - bug‘doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Yer egalari, bank egalari, sudxo‘rlar dexqonlarni qarzga botirib, ularni ayanchli axvolga solib qo‘ydilar. 1870-1890-yillar davomida Xindistonda 20 martadan ko‘p ocharchilik yuz berdi. Natijada, 18 mln odam qirilib ketdi.

1878-yilda ingliz ma‘muriyatni Xindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot xaqida qonun qabul qildi. Qonun barcha gazetalarni inglizlar nazoratiga o‘tkazdi. Tez orada o‘qotar qurollarni saqlamaslik xaqida akt qabul qilindi.

Buyuk Britaniya maxalliy burjuaziyaga "qisman yon bosish siyosati" ni xam yurita boshladi. Ularning vakillari shaxarlar ma‘muriyatiga saylana boshladilar. Shunday bo‘lsada, Xindiston faqat Buyuk Britaniya orqaligina savdo qila olardi, xolos.

**Iqtisodiy axvol.** XX asr boshlarida Xindistonda kapitalizm sekinlik bilan bo‘lsada, rivojlana boshladi. 1910-yilga kelib kanop-tola fabrikalari soni 2 barobar ko‘paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to‘qish korxonalarining 215 tasi xind kapitalistlariga qarashli edi. Sanoat ishchilari soni salkam 1 mln

kishiga yetdi. Buyuk Britaniya barcha ko'mir xavzalari, kanop sanoati, choyzorlarni, transport, savdo va sug'urta jamiyatlarini o'z qo'liga to'plab oldi va butun Xindiston ishlab chiqarish tizimi ustidan nazorat o'rnatdi.

Bu yerda metropoliya kapitali juda tez o'sib bordi. Biroq, xalq ommasining turmushi esa tobora yomonlashib borgan. 1896-1906-yillarda 10 mlndan ortiq odam ochlikdan o'ldi. 1904-yilda esa 1 mln odam vabodan qirildi.

1905-yili Kerzon universitetlarga kirish pulini 2 barobarga oshirdi. Ulardagi xuquq fakultetlari "yopib" qo'yildi. Demokratik ruxdagi, xalq manfaatini ko'zlovchi talabalarning universitetlarga kirishi butunlay taqiqlandi.

**Milliy-ozodlik xarakati.** Xindiston xalqi mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik kurashi olib bordi. 1885-yilda Bombay shaxrida muayyan dasturiga ega siyosiy partiya -"Xindiston milliy kongressi" (XMK) tuzildi. Ayni paytda, "Musulmonlar ligasi" xam tashkil topdi. Kongress o'z safiga yirik savdo-sanoat kapitali vakillarini, liberal pomeshiklar xamda milliy ziylolarni birlashtirdi. Dastlabki vaqlarda Xindiston milliy kongressiga ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Xindiston vitse-qiroli lord Dafferin "milliy kongress inqilobdan arzonroq" deb izoxlagan edi. Inglizlar o'ylagandek, milliy kongressning talablari dastlabki paytlarda juda xam mo'tadil bo'ldi. Bu talablar Britaniya xukmronligini saqlab qolgan xolda, ba'zi isloxoqlar o'tkazishnigina ko'zda tutardi. Ya'ni chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga boj belgilash, maxalliy vakillik muassasalarining xuquqini kengaytirish, xindlarni boshqarish ishlariga jalb etish, texnik ta'limdi uyushtirish va boshqalar edi. Biroq, vaqt o'tishi bilan bu partiya katta mavqega egabola bordi.

1890-yilda "so'l" - radikal oqim shakllandi. Unga Bal Gangadxara Tilak (1856-1920) raxbarlik qildi. U xind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan bordi. Dinga, uning ommani uyuşdırıvchi kuchiga katta baxo berdi. Tez orada u Puna shaxrida mustaqil o'rtta maktab tashkil qildi. Maktab o'quvchilar ongiga vatanparvarlik g'oyalarini singdira boshladı. 1880-yilda Tilak "Kesari" (Sher) gazetasini tashkil etdi. Gazeta yoshlar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qila boshladı. Xindiston sharoitida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan ozodlikka chiqishning iloji yo'qligini anglagan Tilak kurashning "kuch ishlatmaslik" yo'lini tanladi. Bu usulda asosiy e'tibor ingliz tovarlarini boykot qilishga qaratildi. "Xudo Xindistonne xorijiy mamlakatlarga xech qachon xadya qilgan emas" der edi Tilak.

Tilak tarafдорлари ommani mustamlakachilarga qarshi nafrat ruxida tarbiyalashardi. Bundan xavfsiragan inglizlar 1897-yili Tilakni 1,5 yilga qamadilar. Lekin tez orada ozod qilishga majbur bo'ldilar.

1906-yil dekabrda "so'l" radikal oqim talabi bilan Xindiston milliy kongressi qo'shimcha qaror qabul qildi. "Svaraj" ("o'z xokimiyatimiz"), "Svadeshi" ("o'z ishlab chiqarishimiz"), "Ingliz mollariga boykot" xalq orasida katta e'tibor qozondi. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan xam voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni xindlashtirishga, maxalliy millatni fabrika va zavod qurishga chaqirdi. "Paysa fond" nomli mablag' jamg'armasi tuzdi. Xind sanoati mollarining ko'rgazmalarini tashkil etdi. "Svaraj", "Svadeshi" dasturi ommaga katta ta'sir ko'rsatdi. 1908-yili Bombay viloyatining Surat shaxrida Xindiston milliy kongressining qurultoyi chaqirildi. Biroq, unda "Svaraj", "Svadeshi" dasturidagi asosiy mazmun - "o'z xokimiyatimiz" g'oyasi qabul qilinmadı. Mo'tadil oqim ingliz imperiyasi tarkibida qolish, ayni paytda, o'z-o'zini boshqarish xuquqi berilishi tarafдорларining fikri ma'qullandi. Radikal oqim (Tilak boshliq) XMK tarkibidan chiqarildi.

Ingliz ma'murlari tez orada "Qonunga xilof" majlislar va matbuot xaqida taqilovchi qonunlar chiqardilar va shafqatsiz qatag'onga zo'r berdilar. Ish tashlash xarakatining raxbarlarini sud qilinmasdan otishga xukm qilina boshlandi. Shu yo'l bilan Xindistondagi ozodlik xarakatini vaqtincha bostirishga muvaffaq bo'lindi.

**Urush arafasida.** Xindistonning maxalliy xukmron doiralari ingliz mustamlakachi ma'muriyati bilan kelishib, 1909-yilda "Xindiston kengashlari xaqida qonun" nomli xujjat qabul qildi. Bu qonunga ko'ra, axolining faqat yarim %igina saylov xuquqini oldi. Saylovlar diniy jamoa asosida o'tkaziladigan bo'ldi (ya'ni xindlar va musulmonlar aloxida-aloxida ovoz beradigan bo'ldilar). Bu "saylov o'yini"dan maqsad - xindlar va musulmonlar o'rtasida nifoq solish edi.

## VII Mustahkamlash

## VIII. O'quvchilarni baholash:

## IX. Uyga vazifa:

mavzuni o'qish

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Eron

## II. Mashg‘ulot maqsadi:

- a) Ta`limiy maqsad: Mavzu xaqida bilimlarga ega bo‘lish
- b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg‘ularni shakillantirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakillantirish

## III. Mashg‘ulot usuli: Yangi tushuncha berish.

## VI. Mashg‘ulot jixozi: Mashg‘ulotlik , bukletlar, xarita, tarqatma material

## V. Mashg‘ulotning borishi:

- a) Davomadni aniqlash.
- b) Dunyo yangiliklarini so‘rash
- c) O‘tilgan mavzuni mustaxkamlash.

## VI. Yangi mavzu bayoni:

**Buyuk Britaniya va Rossiyaga qaramlikning kuchayishi.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eron dunyo sarmoyador davlatlarining yarim mustamlakasiga aylandi. Shox tuzumi va mustamlakachilik zulmi xalq axvolini yanada og‘irlashtirdi. Mamlakatda noroziliklar kuchaydi.

Erondagi mustabid xokimiyat yirik yer egalari, viloyat xokimlari xamda urug‘larning xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning burjulashuvi sust kechdi. Yer dexqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo‘lida edi. Shaxarlarda yashovchi xunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dexqonlar xam sudxo‘rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

Eron yirik yer egalari, savdogarları va sudxo‘rları shox xokimiyatini cheklab qo‘yishni, o‘z mulklarining daxlsiz bo‘lishini, gubernatorlar va xonlar o‘zboshimchaligiga barxam berishni, eronlik sarmoyadorlarning xuquqlarini chet ellik kapital egalari bilan teng qilib qo‘yilishini talab qildilar.

Eronga kapital chiqarish bo‘yicha Buyuk Britaniya 1-o‘rinda edi. 1872-yili Eron neft konlaridan foydalanish, tosh va temiryo‘l qurish konsessiyalari olindi. 1889-yili ingлиз monopolisti Reyter Eronda "Shaxanshoxbank" ochishga erishdi. Sharhnomaga ko‘ra, bank qog‘oz pullar chiqarish va mamlakat yerosti boyliklaridan erkin foydalanish xuquqini oldi. I jaxon urushi arafasida Eron Buyuk Britaniyadan 9.6 mln funt sterling qarz bo‘lib qoldi.



Eronni qaram qilishda Rossiya xam ishtirok etdi. I jaxon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi 164 mln rublni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni xam kuchaytirdi. Ayniqsa, Rossiyaning shox saroyiga ta’siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo‘ldan bordilar. Ular Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Xuziston xonlarini markazga, shox xukmronligiga qarshi gijgijlab turdilar.

**1905-1911-yillardagi Eron inqilobi.** Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siquvlar Eronda 1905-yili inqilobiy xarakat boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Mamlakat axolisi butun mamlakat sanoat tarmoqlariga xo‘jayinlik qiluvchi rus-ingлиз sarmoyadorlarini mamlakat xududidan chiqarib yuborishni talab qildilar.

Mamlakatda umumiy ish tashlash yuz berdi. Shox xukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o‘ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq xarakati boshlanib ketdi. Unda kurashning best usuli qo‘llandi. Bestda o‘tirgan odamga jazo chorasi qo‘llash mumkin emas edi. Namoyishchilar "adolatxona" tashkil etish, shafqatsiz amaldorlarni xaydash talabi bilan chiqdilar.

Shox xalq xarakatiga qarshi qo‘shindan foydalanmoqchi bo‘ldi. Biroq, qo‘sish xalqqa o‘q uzishdan bosh tortdi. Natijada, 1906-yilning 5-avgustida shox konstitutsiya qabul qilish xaqida farmon chiqarishga majbur bo‘ldi. Lekin, farmon ijrosiz qolgach, xalq yana qo‘zg‘aldi. Buning oqibatida Tabrizda Eron tarixida 1-parlament - Majlis tuzildi. Majlis Eron sotsial-demokratlari ta’siri ostida edi. 9-sentabrda shox xalq tazyiqi bilan Majlisga saylovlar o‘tkazish xaqida farmon chiqardi. Kojarlar (ya’ni shox urug‘iga mansublar), ruxoniylar, savdogarlar, zamindorlar va dexqonlar, xunarmandlar - jami 6 ijtimoiy qatlam saylov xuquqiga ega bo‘ldilar.

1906-yilda Majlisga saylov o'tkazildi. Shox Muzaffariddin konstitutsiyaning 1-qismini tasdiqladi. Unga binoan, shoxga barcha qonunlarni tasdiqlash, budget qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish xuquqi berildi. Chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Majlisning roziligi olinishi belgilab qo'yildi.

1907-yilda shox Muzaffariddin vafot etgach, taxtga mustabid tuzum tarafdori, yangilikka qarshi Muxammad Alishox o'tirdi. U inqilobiy o'zgarishlarga qarshi kurashni rejalashtirdi. Yangi shox Majlisga qat'iy qarshi edi. Lekin, inqilobiy xarakat ko'lami uni Eronda konstitutsiyaviy tartibni saqlab turishga majbur etdi. Shu bilan 1905-1907-yillardagi Eron inqilobining 1-bosqichi tugadi.

**Inqilobning 2-davri.** 1907-1911-yillar Eron inqilobining 2-davri deyiladi. Xarakat endi asosan mustamlakachilarga qarshi qaratildi. Shaxar kambag'al qatlamlari xam o'z talablari bilan chiqishdi.

Ayniqsa, mujoxidlar tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ular yashirin saylov xuquqi, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shox yerlarini musodara qilish, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan chiqdilar.

Demokratik xarakat ta'siri ostida shox zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi. Feodal zamonga xos bo'lgan unvonlarni bekor qildi. Poraxo'rlik, tamagirlukka qarshi kurash to'g'risida qonun elon qildi. Shox Eron konstitutsiyasining eng muxim demokratik mazmundagi moddalarini tasdiqlab imzo chekishga rozi bo'ldi. Qonun oldida xamma teng, shaxs va mulk daxlsizligi, jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazish, dunyoviy sud (shariat sudi bilan 1 qatorda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarini ajratish kabi moddalar muxim axamiyatga ega edi.

Ayni paytda, shoxga katta xuquqlar xam berildi. Chunonchi, shox javobgarlikdan ozod shaxs, Bosh qo'mondon, urush e'lon qilish, sulx tuzish, vazirlarni tayinlash va bo'shatish kabi xuquqlarga ega edi. Shoxning konstitutsiya va qonunlarga sodiqlik xaqida qasamyod qilishi qoida qilib qo'yildi. Qabul qilinayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun 5 ulug' ulamo tayinlanadigan bo'ldi.

**Buyuk Britaniya - Rossiya bitimi.** Jaxon mustamlakachilik tizimi Erondagi inqilobiy o'zgarishlarga befarq qarab turmadi, Ularning barchasi Eronning nisbatan zo'ravonlik siyosati yuritdilar. 1907-yilda Buyuk Britaniya-Rossiya bitimi imzolandi. Bitimga ko'ra Eron uch qismiga bo'lindi. Shimoliy Eronning Rossiya, Janubiy Eronning Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi tasdiqlandi. Eronning o'rta qismi esa betaraf deb e'lon qilindi. Ayni paytda, bu davrda shox inglizlar va ruslar yordamida 1908-yilda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi. Rossiya kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqilandi.

Majlis xalokatga uchragach, inqilobiy xarakat markazi Tabrizga ko'chdi. Shox qo'shinlari Tabrizga xujum qildi va shaxarni qamal qildi. Oqibatda, ocharchilik boshlandi. Tashqi dunyodan uzib qo'yilgan Tabriz qo'zg'oloni yengildi.

**Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati.** Tabriz qo'zg'oloni bostirilgani bilan shoxga qarshi xarakatlar to'xtamadi. 1909-yilda Texronda Muxammad Alishox taxtdan tushirildi. O'rniga o'g'li Axmad shox deb e'lon qilindi. Konstitutsiya tiklandi. Xukumat mamlakat iqtisodini o'nglash maqsadida chet eldan, chunonchi, Buyuk Britaniyadan 1 mln 250 ming funt sterling qarz oldi. Ichki aksilinqilobchi kuchlar Rossiya va Buyuk Britaniya yordamida inqilobiy Majlisga qarshi xujumga tayyorgarlik ko'rdilar. Nixoyat Rossiya qo'shini 1911-yilda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazilishida qatnashdi. Shu tariqa Eron inqilobi bostirildi.

Erondagi 1905-1911-yillar inqilobi katta ijtimoiy xodisa - feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish bosqichi bo'ldi.

I jaxon urushi arafasida Eronning xorijga tobeligi yanada kuchaydi. 1912-yilda Eron 1907-yilgi Rossiya-Buyuk Britaniyaning ta'sir doiralari xaqidagi bitimini tan olishga majbur etildi. Rossiyadan 14 mln rubl qarz olindi va Eron iqtisodiy xamda siyosiy jixatdan buyuk davlatlarga qaram bo'lib qoldi.

**Best** - masjid va qabristonlarda tinch o'tirib, sust qarshilik ko'rsatish.

**Konsessiya** (lotincha - ruxsat etish) - davlat organlarining muayyan shartlar asosida yerosti boyliklari, yerusti obektlarini ekspluatatsiyaga berish to'g'risidagi bitim.

## VII Mustahkamlash

### VIII. O'quvchilarni baholash:

**IX. Uyga vazifa:** mavzuni o'qish

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: Shimoliy Afrika mamlakatlari

## II. Mashg‘ulot maqsadi:

- a) Ta`limiy maqsad: Mavzu xaqida bilimlarga ega bo‘lish
- b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg‘ularni shakillantirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakillantirish

## III.Mashg‘ulot usuli: Yangi tushuncha berish.

## VI.Mashg‘ulot jixozi: Mashg‘ulotlik , bukletlar, xarita, tarqatma material

## V.Mashg‘ulotning borishi:

- a) Davomadni aniqlash.
- b) Dunyo yangiliklarini so‘rash
- c) O‘tilgan mavzuni mustaxkamlash.

## VI. Yangi mavzu bayoni:


**Ijtimoiy va siyosiy xayot.** Afrikaning shimoliy qismida, Saxroyi Kabirning janubiy chegarasiga qadar axolining ko‘pchiligin arablar tashkil etardi. Bu xududlarda barbarlar, xabashlar va boshqa xalqlar xam yashardi.

XIX asrning 70-yillariga qadar, Afrikaning shimolida va shimoli-sharqida, ya’ni arablar yashovchi xududlarda mutlaq podsholik tuzumlari xukm surardi. Ulardan rasman Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirgan Misr, Tripolitaniya, Kirenaika (xozirgi Liviya) va Tunis esa amalda Turkiya sultoniga itoat etmasdilar.

XIX asr oxirida Misr va Sudan - Buyuk Britaniyaning, Tunis, Jazoir va Marokash - Fransiyaning, Marokashning 1 qismi - Ispaniyaning, Liviya esa Ialiyaning mustamlakalariga aylandi.

**Misrning asoratga solinishi.** Misrning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi tarixi Turkiya xukmronligidan ozod bo‘lish va inglizlarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash bayrog‘i ostida o‘tgan o‘zgarishlar davri bo‘ldi.

Musulmon ruxoniylaridan al-Azxhr madrasasida mudarris bo‘lgan Jamoliddin al-Afg‘oniy va uning shogirdlari milliy-ozodlik xarakatida katta obro‘ qozonishdi. Ular barcha musulmonlarni mustamlakachilarga, Turkiya zulmiga qarshi birlashuvga, konstitutsiyaviy tuzum o‘rnatalishiga chaqirdilar. 1871-yilda Jamoliddin al-Afg‘oniy "Xizb ul-Vatan" ("Vatan partiyasi") partiyasini tuzdi. Bu partiya chet elliklarga qarshi "Misr misrliklarniki" shiori ostida kurashdi. "Vatan" chilar xukmdor (Xadiv)ning xuquqini cheklovchi konstitutsiya uchun kurashdilar. 1882-yil 7-fevral kuni Xadiv yangi qonunga imzo chekishga majbur bo‘ldi. Unga ko‘ra xukumat Deputatlar palatasiga bo‘ysunadigan, parlament budget ustidan nazorat qilish xuquqini oladigan, birorta qonun deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo‘ldi. Bularning xammasi feodal mustabid tuzumidan burjua parlament tuzumiga o‘tish yo‘lidagi katta g‘alaba edi.



Chet elliklar Misr xukumatiga ultimatum yuborib, amaldagi xukumatni tarqatishni talab qildilar. Mustamlakachilarning bu talabi bajarilmadi. Bunga javoban Buyuk Britaniya 1882-yilda Iskandariyani to‘plardan o‘qqa tutdi. Uning desanti shaxarni egalladi. Bunga qarshi, Misr qo‘smini raxbarlaridan biri Axmad Orabibey Qoxirada oliy davlat organi - Muvaqqat kengash tuzdi. 60 ming kishilik qo‘sini to‘pladi. Ko‘p o‘tmay inglizlar Suvayshni bosib oldilar va Qoxiraga yurish boshladilar. 1882-yil sentaborda Misr qo‘smini yengildi. Polkovnik Axmad Orabibey Seylon oroliga umrbod surgun qilindi. Shunday qilib, Misr Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi.

Buyuk Britaniya Misrda Usmonli Turk imperiyasi xokimiyatini rasman tugatmadı. Misr xadivlari sulolasi, Vazirlar kengashi nomiga bo'lsa xam saqlandi. Moliya ustidan nazorat to'laligicha ingliz maslaxatchilariga o'tdi.

1888-yilda Istanbulda Suvaysh kanalidan foydalanish bo'yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya davlatlari konvensiya imzolashdi. Unga ko'ra kanaldan barcha davlatlar xox urush, xox tinchlik paytida bo'lsin erkin foydalanish xuquqini olishdi.

Milliy ozodlik uchun kurashning faol tarafidori bo'lgan "Vatan" partiyasi inglizlar nazarida eng xavfli bo'lib chiqdi. Uni kuchsizlantirish uchun keskin choralar ko'rildi. Natijada "Vatan" partiyasi keng siyosiy kurash yo'lidan yakka terror yo'liga o'tib ketdi. Partiyaning "Al-Liva" ("Bayroq").gazetasi taqiqlandi.

Ammo ozodlik xarakati esa boshqa ko'rinishlarda davom etdi. Majlis vitse-prezidenti Saad Zaglul demokratik, milliy-ozodlik ruxidagi deputatlarni o'z atrofiga to'plab, majlis nomidan ingliz xukmronligiga qarshi xujjatni o'tkazishga erishdi.

**Maydiylar qo'zg'oloni.** XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Sharqiy Sudan Misr qaramog'ida edi. 1881-yilda sudanliklarning yetakchisi Muxammad Axmad xalqni Misr-Turk zulmiga xamda yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi. Muxammad Axmad o'zini Maxdiy deb e'lon qildi. Gubernator Maxdiyni qamash uchun yuborgan 200 kishilik xarbiy gurux yo'q qilib tashlandi.

1882-yilda Kartumga Misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi. U maxdiylar xarakatini bostirishga urindi. Lekin, mag'lubiyatga uchradi. Bu orada inglizlar Misri bosib oldilar. 1883-yili general Xiks boshliq ingliz qo'shini Sudan ansorlari tomonidan qirib tashlandi. 1884-yili inglizlar Sudanga general Gordon boshchiligidagi xarbiy qism yuborishdi. Biroq, bu qo'shin xam ansorlar tomonidan yo'q qilindi va Sudan ozod qilindi.

1885-yilda Sudanda mustaqil maxdiylar davlati tuzildi. Qo'zg'olon raxbari maxdiy Muxammad Axmad vafot etib, uning 1-xalifi (xaliflari to'rtta edi) Abdullox xokimiyatni o'z qo'liga oldi. Omdurman shaxri poytaxt etib belgilandi. Mamlakat viloyatlarga bo'lindi. 200 ming kishilik qo'shin davlatning asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Biroq, mamlakatda ichki nizo kuchaydi. Aynan shu omil maxdiylarni kuchsizlantirdi. Bundan foydalangan Buyuk Britaniya Efiopiyani Sudanga qarshi gjigjiladi. Natijada, 1885-yilda 2 o'rtada urush xarakatlari boshlandi. Bu orada Italiya Efiopiyaga xujum qildi. 1887-yilda Adua yonida Italiya qo'shini tor-mor qilindi. Efiopia xukmdori Yo'xanni Abdulloxga murojaat qilib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashga chaqirdi. Lekin, Abdullox buning evaziga Yo'xonnidan islomga o'tishini talab qildi. Oqibatda, zarur bitim tuzilmay qoldi. Efiopia-Sudan urushida ko'p qon uykildi. 1889-yilda Efiopia imperatori Menelik sudanliklar foydasini ko'zlovchi bitimni imzolashga majbur bo'ldi.

1889-yil avgustda esa Buyuk Britaniya - Misr birlashgan qo'shnlari Sudan maxdiylari qo'shini ustidan g'alaba qozondi va Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi.

Buyuk davlatlarning Shimoliy Afrikadagi siyosati. 1883-yil Tunisda Fransiya xukmronligi o'rnatildi. Bungacha Fransiya Jazoirni xam egallagan edi. Jazoirda XIX asr oxirida 300 mingdan ortiq fransuz yashardi. Xosildor yerlar fransuzlar qo'lida edi.

1905-1906-yillarda Jazoirda mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi. 1912-yilda "Yosh Jazoir" partiyasi tuzildi. Bu partiya sud ishlarida jazoirliklar uchun "maxalliy kodeks" nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish, soliq olishda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish, xalq maorifini kengaytirish, arablar uchun saylanadigan lavozimlarni ko'paytirish kabi talablarni qo'ydi.

Yevropa davlatlarining mustamlaka taqsimotida Fransiya Marokashga xam ega bo'ldi. 1900-yili Italiya Fransiyaning Marokashga nisbatan "xuquqlarini" tan oldi. Buning evaziga Italiya Liviyaga daxldor "xuquq"qa ega bo'ldi.

## VII Mustahkamlash

### VIII. O'quvchilarni baholash:

#### IX. Uyga vazifa:

mavzuni o'qish

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**Tarix fanidan 10-sinf o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Narxi: 15 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**